

This is not registered version of TotalDocConverter

Shu topa o'zining yandirishovchi kitoblarini tirishtirib, yuzimni chetga o'girdim.

Kayfiyatim tushganini payqayotgandek, "ilgarilari mendan joningizniyam ayamas edingiz, endi me'dangizga tegdim shekilli", deyayotgandek tuyuldi. O'ng'aysizlanib, ko'zimni yerga qadadim.

U esa go'yo ta'nani davom ettirdi: "Balki, mendan qutulmoqchidirsiz?"

"Ha!" deb baqirgim va bir yo'la orani ochiq qilib qo'ygim keldi-yu, to'satdan ikkilanib qoldim: "Balki, usiz menga juda qiyin bo'lar..."

Shunda u birdan tutoqib ketgandek, "Siz nomardsiz!" deya zahrini to'kkandek bo'ldi.

Mayli, men nomard bo'laqolay! nihoyat dadil turib o'shqirdim unga o'chakishib. Endi sendek zaqqum bilan sirayam yaqin bo'lolmayman!

... O'sha-o'sha, chekishni butunlay tashlab yubordim.

1978